



BO'LAJAK PEDAGOGLARDA ESTETIK DUNYO QARASHNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

Kamilova Shaxnoza Muratbek qizi

Urganch RANCH texnologiyalar universiteti

70110102-Pedagogika yo'nalishi (kunduzgi) magistranti 2-bosqich
talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17841166>

ARTICLE INFO

Received: 1st December 2025

Accepted: 2nd December 2025

Published: 5th December 2025

KEYWORDS

Pedagogik tajriba,
innovatsion texnologiya,
samaradorlik, o'quv faoliyati,
interfaol metod, natijadorlik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari natijalari yoritilgan. Shuningdek, o'tkazilgan tajriba asosida o'quv jarayonining samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilinadi.

Kirish.

Hozirgi davrda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. Shu nuqtayi nazardan pedagogik tajriba-sinov ishlari ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvlarni sinovdan o'tkazish, ularning amaliy natijadorligini aniqlash imkonini beradi.

Modernizatsiya qilish jarayoni: Innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va sun'iy intellekt vositalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy faoliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, masofaviy ta'lim, onlayn kurslar, elektron resurslar va virtual laboratoriyalar ta'limning qulayligi va ommabopligini ta'minlaydi. Bundan tashqari O'qituvchilarning malakasini oshirishga xizmat qiladi. Pedagoglar raqamli savodxonlik, axborot texnologiyalaridan foydalanish va zamonaviy metodikalardan samarali foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari nazarda tutiladi.

Shu bilan birgalikda Ta'lim mazmunini kompetensiyaga asoslash. Zamonaviy ta'lim nafaqat bilim berish, balki o'quvchida amaliy faoliyatga tayyorlik, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilishi lozim.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari doirasida ilg'or pedagogik tajribalarni amaliyotga tatbiq etish va ularning natijadorligini ilmiy jihatdan baholash jarayoniga aylanadi. Ushbu bosqichda quyidagilar amalga oshiriladi:

Tayyorlov bosqichi muammo tanlash, metodika ishlab chiqish, tajriba guruhlarini shakllantirish, amalga oshirish bosqichi yangi metod yoki texnologiyani dars jarayonida tatbiq etish, natijalarni tahlil qilish bosqichi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari bo'yicha o'zgarishlarni aniqlanadi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari doirasida ta'lim jarayonining sifat ko'rsatkichlarini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Quyidagi jihatlar bu munosabatni yaqqol ko'rsatadi:

Amaliy yo'naltirilganlik. Tajriba ishlari o'quv jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlaydi. O'qituvchi faoliyatini takomillashtiradi. O'qituvchi darslarni tahlil qilish, yangi metodlarni sinovdan o'tkazish orqali o'z pedagogik mahoratini rivojlantiradi.

O'quvchi faoliyatini faollashtiradi. Interfaol metodlar o'quvchilarni darsning faol ishtirokchisiga aylantiradi, mustaqil fikrlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ta'lim

sifatini oshiradi. Tajriba-sinov asosida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, tahliliy fikrlash, amaliy topshiriqlarni bajarish qobiliyati sezilarli ravishda ortadi.

O'quv jarayonining samaradorligini tahlil qilishda quyidagi asosiy mezonlar tayaniladi:

Xususan, bilim sifati ko'rsatkichi - o'quvchilarning nazariy bilimlarni qay darajada o'zlashtirgani, amaliy ko'nikma darajasi - o'quvchilarning bilimni amaliyotda qo'llay olish qobiliyati, ijodiy faollik ko'rsatkichi - yangi g'oya va yechimlarni taklif etish qobiliyati, motivatsiya darajasi - ta'limga bo'lgan qiziqish, ishtirok faolligi hamda kommunikativ kompetensiya - muloqot madaniyati, guruhda ishlash qobiliyati tahlil qilinadi.

Pedagogika va ta'lim texnologiyalari asosan o'quvchilarning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogika, o'qitishni samarali tashkil etish usullari, uslublari, raqamli texnologiyalarni qo'llashni o'rgatuvchi ta'lim texnologiyalarini birlashtirishdan iborat. ya'ni, o'quvchi qanday o'rganadi, o'qituvchi qanday o'qitishi kerak, qaysi metod samarali, degan savollarga javob beradi.

Ta'lim jarayoni o'zgarib chiqilganda STEAM, online ta'lim, blended learning, sun'iy intellekt kabi yangi metodlar o'qituvchilardan yangicha yondashuvni talab qiladi. Zamonaviy o'qituvchilar yetishmayapti. Raqamli pedagogika, interaktiv metodlar, elektron platformalar bilan ishlay oladigan o'qituvchilar ko'p joyda kam. Ta'limdagi innovatsiyalar aynan shu yo'nalishda paydo bo'ladi

Darsni qiziqarli, samarali, interaktiv qilish usullari shu yo'nalishda ishlab chiqiladi. Har bir ta'lim muassasasida pedagogik texnologiya joriy etilishi kerakligi, maktablardagi yangilanish, o'quv tizimining modernizatsiyasi - barchasi shu sohaning mutaxassislariga bog'liq. Asosiy o'rganiladigan yo'nalishlardan biri pedagogika nazariyasi, ta'lim metodikasi,

Interaktiv metodlar (Debate, Klaster, Venn diagramma, Aqliy hujum), Raqamli pedagogika (onlayn ta'lim, LMS, e-learning), Psixologiya va yosh fiziologiyasi. Ta'limda sun'iy intellekt, o'quv jarayonini loyihalash Baholash tizimlari, ta'lim menejmenti kiradi.

Maktab, kollej, litsey va universitetda o'qituvchi bo'la oladi, ta'lim texnologlari, o'quv rejalar va darsliklar ishlab chiquvchi mutaxassis, o'quv markazlarida metodist, ta'lim loyihalari koordinatori, online ta'lim platformalarida kontent metodologi, o'qituvchi bo'lishni istaganlar, ta'lim sohasiga qiziqqanlar, interaktiv metodlar, texnologiyalar bilan ishlashni yoqtiradiganlar hamda psixologik jihatdan bolalar yoki talabalarga ishlashga moyil bo'lganlar.

Pedagoglar raqamli savodxonligi bo'yicha kompyuter, planshet, smartfon kabi qurilmalar bilan ishlash, ta'lim platformalaridan foydalana olish, raqamli kontent yaratish (prezentatsiya, video, test), onlayn dars o'tish, internet xavfsizligiga amal qilish, sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish hamda qobiliyatlaridan iborat bo'lgan kompetensiya majmui hisoblanadi.

Bedagogika yo'nalishida asosan ta'lim jarayoni raqamlashtirilmoqda, Online ta'lim, LMS (Google Classroom, Moodle), elektron kundaliklar - bularning barchasi o'qituvchidan raqamli ko'nikma talab qiladi. O'quvchilarning avlodi "raqamli avlod", Bugungi o'quvchi texnologiyani yaxshi biladi. O'qituvchi undan orqada qolmasligi kerak. Dars samaradorligini oshiradi.

Interaktiv, vizual va multimedia vositalari darsni qiziqarli qiladi. Ma'lumotni aniq va tez yetkazish imkonini beradi. Prezentatsiyalar, video darslar, online testlar orqali material tezroq o'zlashtiriladi. O'qituvchining mehnatini yengillashtiradi. Elektron test yaratish, avtomatik baholash, elektron portfel - vaqtni tejaydi. Zamonaviy ta'lim standartlarining asosiy talabi milliy va xalqaro standartlarda o'qituvchining raqamli ko'nikmalari majburiy kompetensiya sifatida belgilanadi.

Pedagogning raqamli savodxonligi axborot madaniyati, internetda ma'lumot toppish, ishonchli manbalarni tanlash, ma'lumotni qayta ishlash. Kompyuter va ofis dasturlari, Word, Excel, PowerPoint, PDF, grafik ishlovchilar, bulutli xizmatlar (Google Drive, OneDrive), Elektron ta'lim platformalaridan foydalanish, Zoom, Google Meet, Teams, Google Classroom, Moodle, EduPage va boshqalar iborat bo'ladi.

Raqamli kontent yaratish, video darslar yozish (Camtasia, Loom), test yaratish (Kahoot, Quizizz, Google Forms), interaktiv materiallar (Canva, Genially), Raqamli xavfsizlik, parollarni

himoyalash, kiberxavflarni oldini olish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, Sun'iy intellektdan samarali foydalanish, dars rejalashtirish, testlar yaratish, o'quvchilar bilan individual ishlash hamda kontent tayyorlashdani o'z ichiga oladi.

Tahlil metodikasi bilan o'quv jarayonining samaradorligini aniqlashda quyidagi usullar keng qo'llaniladi:

Bunda,

Diagnostic testlar - bilim va ko'nikmalarni o'lchash, so'rovnomalar va kuzatuvlar - o'quvchi faoliyati va motivatsiyasini baholash, monitoring tizimi - semestr va yil yakunida natijalarni tahlil qilish, matematik - statistik tahlil - o'rtacha ball, foizli o'sish, dispersiya tahlili qilinadi.

Tajriba natijalari jadval asosida olib qaranganda quyida o'quv jarayonining samaradorligi tahlili bo'yicha shartli tajriba natijalari keltiriladi.

Ko'rsatkich nomi	Tajriba oldidan (%)	Tajriba so'ngida (%)	O'sish (%)
Bilim darajasi	65	83	+18
Amaliy ko'nikma	58	80	+22
Ijodiy faollik	54	78	+24
Motivatsiya darajasi	60	85	+25

Natijalardan ko'rinib turibdiki, o'quv jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish natijasida o'quvchilarning barcha ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli ijobiy o'sish kuzatilgan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonining samaradorligi asosan quyidagi omillarga bog'liq:

O'qituvchi tomonidan to'g'ri metod tanlanishi, o'quvchilarning darsdagi faolligi va mustaqil ishlash darajasi, ta'lim vositalarining texnologik darajasi, rag'batlantirish va baholash tizimining adolatliligi. Shunday qilib, samaradorlikni oshirish uchun o'qituvchi faoliyati tizimli tahlil qilinishi, o'quvchi markazli ta'lim modeli keng joriy etilishi zarur.

Tajribaning maqsadi va vazifalariga Pedagogik tajriba-sinov ishlari quyidagi maqsadni ko'zlaydi. Yangi pedagogik metod va texnologiyalarning ta'sirini aniqlash, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishda interfaol metodlarning rolini o'rganish, ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan yondashuvni joriy etishni anlatadi.

Vazifalar sifatida esa tajriba va nazorat guruhlarini shakllantirish, dars jarayoniga innovatsion metodlarni tatbiq etish, o'quvchilarning bilim darajasini tajriba oldidan va keyin tahlil qilish, natijalarni taqqoslash va samaradorlikni aniqlashdan iborat bo'ladi.

Buning uchun tajriba jarayonida quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim bo'ladi. Tajriba ishlari ikki bosqichda olib borilishi belgilanadi. Nazorat guruhi va tajriba guruhi nazorat guruhi an'anaviy dars o'tish metodlari asosida tahsil oldi, tajriba guruhi esa "Kichik guruhlarda ishlash", "Aqliy hujum", "Klaster", "Venn diagrammasi" kabi interfaol usullar orqali ta'lim oladi. Jarayon davomida o'quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi, tahliliy yondashuvi va o'zlashtirish darajasi muntazam kuzatilib boriladi.

Kichik guruhlarda ishlash jarayonida o'quvchini faollashtirish, har bir o'quvchi dars jarayonida faol ishtirok etadi, o'z fikrini bildiradi, mas'uliyatni his qiladi. hamkorlikda guruh a'zolari vazifani birgalikda bajaradilar. Bu jarayon o'zaro muloqot, fikr almashish va bir-biridan o'rganishni kuchaytiradi. Ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish maqsadida o'quvchilar muloqot qilish, tinglash, murosaga kelish, liderlik va guruhda ishlash kompetensiyalarini rivojlantiradilar.

Muammoni hal qilish qobiliyatini oshirish uchun guruh bo'lib o'ylab, tahlil qilib, eng to'g'ri yechimni topishga harakat qilinadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni ta'minlaydi. Har bir o'quvchi o'z qobiliyati, shaxsiy tajribasi va faolligiga qarab guruh ishiga hissa qo'shadi. Kichik guruhlarda ishlashning asosiy maqsadi va vazifalaridan biri bilimlarni mustahkamlash,

murakkab mavzularni birgalikda osonroq o'zlashtirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish, jamoada ishlash ko'nikmasini rivojlantirish hamda dars samaradorligini oshiradi.

Aqliy hujumning maqsadi asosan o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, o'quvchilar berilgan muammo bo'yicha tez, erkin va noodatiy fikrlar bildirish orqali kreativ yondashuvni shakllantiradilar. Muammoni hal qilishda ko'plab g'oyalarni yig'ish, Bir mavzu yuzasidan imkon qadar ko'proq taklif va yechimlar to'plash, eng maqbul g'oyalarni tanlash uchun keng fikrlar maydoni yaratish. Guruhning faolligini oshirish uchun har bir o'quvchi o'z fikrini erkin ayta oladigan sharoit yaratish va darsni jonlantirish. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni ta'minlashdan iborat bo'ladi. O'quvchilarning shaxsiy tajribasi, dunyoqarashi va bilimlarini darsga faol jalb qilish.

Aqliy hujumning vazifalari o'quvchilarni erkin fikrlashga undash, Fikrni tanqid qilmasdan aytish imkonini berish orqali o'quvchilarda dadillik va ong erkinligini yaratadi. Keng qamrovli g'oyalarni yig'ish, mavzu bo'yicha turli nuqtai nazarlar, variantlar va yechimlarni jamlab, umumiy tahlil qilishga sharoit yaratadi. Fikrlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda yaqindan yordam beradi.

Aytilgan g'oyalar asosida umumiy model, sxema yoki yechim algoritmini ishlab chiqish. Hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Guruhda ishlash orqali tinglash, fikrni asoslash, muhokama qilish va kelishuvga erishish kabi kompetensiyalar paydo bo'ladi. Muammoli vaziyatlarni hal qilishga yo'naltirishdan iborat bo'ladi.

Aqliy hujum darsda muammoli vaziyat yaratish va uni yechishda ijodiy fikrlardan foydalanishga yordam beradi. O'quvchi faolligini oshirish, Dars jarayonida passiv o'quvchilarni ham fikr bildirishga jalb qilinadi.

"Klaster" metodidan foydalanishdan maqsad mavzu bo'yicha fikrlarni tuzilmaga solish, o'quvchilar berilgan asosiy tushuncha atrofida fikrlar, g'oyalar yoki faktlarni klaster ko'rinishida to'plab, ularni mantiqiy bo'laklarga ajratadilar. O'quvchining mavzu bo'yicha tasavvurini kengaytirish, Asosiy g'oyaga bog'liq barcha tushunchalar jamlanib, mavzuning keng qamrovda o'zlashtirilishiga yordam beradi.

Bog'lanishlarni ochib berilganda tushunchalar o'rtasidagi aloqa, sabab-oqibat va ichki munosabatlarni ko'rsatish orqali tizimli fikrlash shakllanadi. O'quvchini faollashtirish va mavzuga jalb qilish, dars boshida yoki davomida o'quvchining mavzu haqidagi bilimlarini safarbar qiladi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi, ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda o'quvchilar erkin assotsiatsiyalar asosida g'oyalarni bog'lash orqali kreativ fikrlay boshlaydilar.

Taqqoslash ko'nikmasini shakllantirish, o'quvchilar ikki tushunchaning o'xshash va farqli jihatlarini aniq ajratishni o'rganadilar. Xususan, "Quyosh sistemi - Yulduzlar", "Aristotel - Aflotun". Tizimli fikrlashni rivojlantirish, Tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ko'rish orqali o'quvchilar mavzuni chuqurroq anglaydilar.

Muhim ma'lumotlarni saralash, o'quvchi ko'plab ma'lumotdan faqat asosiylarini ajratib, diagramma bo'shlig'iga joylashtiradi. Bu tahliliy fikrlashni kuchaytiradi. Mavzuni chuqur o'zlashtirish, Fikrlarni taqqoslash orqali o'quvchi mavzuni faqat yodlamaydi, balki tushunib, mantiqiy bog'lash orqali o'zlashtiradi. Vizual ta'limni qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'ladi.

Ko'rgazmali shakl bo'lgani uchun murakkab ma'lumotlar ham oson qabul qilinadi. Diagramma rangli, sodda va tushunarli bo'ladi. Mustaqil va ijodiy ishlashni rag'batlantirish, o'quvchilar mustaqil ravishda jadvalni to'ldiradi, bu esa ularni mantiqiy xulosa chiqarishga o'rgatadi. Dars samaradorligini oshirish, o'qituvchi uchun mavzuni umumlashtirish, mustahkamlash yoki baholash bosqichida juda qulay metod hisoblanadi.

Guruh nomi	Tajriba oldidan (o'rtacha %)	Tajriba so'ngida (o'rtacha %)	O'sish foizi
Nazorat guruhi	62%	68%	+6%
Tajriba guruhi	61%	83%	+22%

Natijalarda yangi pedagogik texnologiyalar qo'llanilgan tajriba guruhida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, faolligi va mustaqil fikrlash ko'nikmalari sezilarli darajada oshganligini ko'rish mumkin.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalariga ko'ra, ta'lim jarayonida zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning bilimini oshirishda, fikrlash doirasini kengaytirishda hamda ijodkorlik salohiyatini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi.

Ta'limda yangicha yondashuvlarni keng joriy etish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblangan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent, 2020.
2. Pedagogika: Darslik / T. To'xtaxodjayeveva tahriri ostida. - Toshkent: Fan, 2022.
3. Xolmurodova M. "Interfaol metodlar orqali ta'lim samaradorligini oshirish". - Toshkent, 2023.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim tizimini raqamlashtirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2023-yil.
5. To'xtaxodjayeveva T. va boshqalar. Pedagogika. - Toshkent: Fan, 2022.
6. UNESCO. Education for Sustainable Development Report. - 2021
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim tizimini raqamlashtirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2023-yil.
8. Gulomova D., Norqobilova M. Ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirishning nazariy asoslari. - Toshkent, 2023.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori, 2024-yil.

INNOVATIVE
ACADEMY